

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov	
Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv	92
B.M.Dehqonov	
Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash	97
X.Sh.Djo'raboyeva	
An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni.....	101
	ILMIY AXBOROT
M.K.Usmonaliyeva	
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi.....	105
O.N.Fozilova	
Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarida qahramon talqini.....	108
J.J.Mamatisakov	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli	113
N.B.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari.....	121
G.O.Abdujalilova	
Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi	124
X.Z.Umarova	
Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog»	127
D.Hakimova	
Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish	130
G'.M.Alamov	
Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati	135
A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish.....	139
S.R.Xoliqov	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari	143
M.A.Алиева	
Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мерещковского	147
A.Y.Ergashev	
Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari	152
Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni	155
X.J.Isomiddinov	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari.....	158
R.D.Mustayev	
Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati	161
B.I.Muxtoraliev	
Ilk hikoyalaridagi ijodiy o'ziga xoslik	165
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
M.M.Azizov	
Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking	174
A.U.Xamidjanov	
Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi.....	181
G.T.Dadamirzayeva	
Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri.....	191

ANDIJON VILOYATI EKIN YERLARI MONITORINGI VA UNI BAHOLASH
МОНИТОРИНГ И ОЦЕНКА ПОСЕВНЫХ ЗЕМЕЛЬ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ
MONITORING AND EVALUATION OF THE ARABLE LANDS OF THE ANDIJAN REGION

Dehqonov Begali Muxammedovich¹

¹Andijon davlat universiteti geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada yer resurslarining tadrijiy o'zgarishi tahlil qilingan bo'lib, Andijon viloyatida ekin yerlaridan foydalanishning bugungu kun holati, mavjud ekin yerlarining hududiy jihatlari tahlil etilib, kutilayotgan ekin yerlari maydonining kamayib borishi, sho'rlanishi darajasi ortishining salbiy oqibatlari yoritib berilgan.

Аннотация

В статье проанализированы изменения в структуре земельных ресурсов, проанализировано состояние землепользования в Андижанской области на сегодняшний день, территориальные аспекты существующих посевных земель, освещены негативные последствия уменьшения ожидаемой площади посевных земель, повышения уровня засоленности.

Abstract

The article analyzes changes in the structure of land resources, analyzes the state of land use in the Andijan region today, the territorial aspects of existing cultivated lands, highlights the negative consequences of reducing the expected area of cultivated land, increasing the level of salinity.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi yerlari, iqtisodiy samaradorlik, monitoring, ekin yerlari, agrotexnik tadbirlar, agrodemografik bosim, sho'rlanish, xo'jalik sub'ektlari

Ключевые слова: земли сельскохозяйственного назначения, экономическая эффективность, мониторинг, посевная земля, агротехнические мероприятия, агродемографическая нагрузка, засоление, хозяйствующие субъекты.

Key words: agricultural land, economic efficiency, monitoring, arable land, agrotechnical measures, agro-demographic load, salinization, economic entities.

KIRISH

Yerdan foydalanish maqsadlarida yer monitoringi olib borish. So'nggi yuz yillikda insonlarning tabiatga ta'siri kuchayib, turli masshtablarda iqtisodiy-ijtimoiy, hamda ekologik muammolar kelib chiqqa boshladi. Natijada atrof-muhit holatini doimiy kuzatib borish tizimi tashkil qilindi. Shu munosabat bilan fanda yangi, monitoring (lotincha "monitor"-esga soladigan, ogohlantiradigan) tushunchasi paydo bo'ldi. Monitoringning asosiy maqsadi tabiiy muhitning inson faoliyati ta'sirida o'zgarishini kuzatish, olingan ma'lumotlar asosida baholash va boshqarishning zaruriy chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofazaga olish bugunning dolzarb mavzulari sifatida qaralib Respublikamizda qator huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Shuningdek, Prezidentning 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-sonli "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroriga muvofiq, bir qator, jumladan, "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 14.01.2022-yildagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 22-son qarori qabul qilindi.

Yerdan foydalanish maqsadlarida yer fondi toifalari asosida yer monitoringi olib boriladi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi yerlarida monitoring olib borish natijasida Qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: yerlarning hududiy joylashuvi, tuproq sifati va unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda iqlim sharoitlarining o'zgarishi kabi alohida jarayonlarni hisobga olish imkoniyatlari yaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodiy rivojlanish ucnun sanoat, transport-kommunikatsiya, shaharsozlik ishlarini amalga

oshirish ham zarur, ikkinchidan ayniqsa ekin yerlarini kamayishi kelajakda katta muammolarga sabab bo'ladi. Aholi sonining ortib borishi ortidan aholining bandligini taminlash, uy-joy muammosi bilan bir qatorda oziq-ovqat, ocharchilik muammolari kelib chiqadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning ma'lumotiga ko'ra jahonda 1,2 mlrd. kishi ochlik va oziq-ovqat tanqisligidan jabr ko'rmoqda. Shu sabab oziq-ovqat bilan taminlanganlik va qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammolari mamlakatlar, mintaqalar va xalqaro masshtabda dolzarbligi ortib borayotgan muammolardan hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri yer bilan bog'langan. Yer sanoat, transport sohalari qatori qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositasi sifatida yerni almashtirish yoki ko'chirish imkoniyati mavjud emas. Yerdan foydalanish doimiy joy bilan bog'liq. [2]

2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni konsepsiyasida: Yer va suv resurslari tobora tanqis bo'lib borayotgan sharoitda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda ekinlarni iqtisodiy samaradorligi va bozor kon'yunkturasi inobatga olinmasdan hamda intensiv qishloq xo'jaligi joriy etilmaganligi sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan [1].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2010-2022 yillarda mamlakatimiz aholisi 29,1 mln. kishidan 35,2 mln. kishiga yetib bu davrda 120 foizga ortgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 21453,2 ming gektardan 19450,6 ming gektarga tushib jami 2002,6 ming gektar yoki 9,3 foizga kamaygan, shu jumladan: haydaladigan yerlar 3988,4 ming gektar, ko'p yillik daraxtzorlar 400,1 ming gektar, pichanzor va yaylovlar 14983,5 ming gektar va bo'z yerlar maydoni 78,6 ming gektarni tashkil etadi [1-jadval]. Andijon viloyatida bu ko'rsatkichlar hozirgi kunda jami aholi 3,32 mln kishini tashkil etgani holda 2010 yilga (2,54 ming) nisbatan 130 foizga ortdi, lekin qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydoni Respublikadagiga mos ravishda 256,16 ming gektardan 255,16 gektarga tushib jami 1000 gektarga, shu jumladan ekin yerlari 203085 gektardan 200370 gektarga tushib jami 2715 gektarga kamaygan.

1-jadval

Viloyat qishloq xo'jaligi yerlarining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi (ming ga)

Yer turlari	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Qishloq xo'jalik yerlari	256882	256847	256901	256865	256660	256781	256678	256611	256023	255395	255300	255162
<i>Shu jumladan</i>												
Ekin yerlari	203774	203749	203493	203279	202748	203001	202508	202389	202081	200567	200447	200370
Ko'p yillik daraxtzorlar	28921	28911	29263	29452	29782	29817	30210	30264	30128	31152	31190	31130
Bo'z yerlar	2871	2871	2827	2825	2825	2780	2780	2781	2766	2586	2573	2573
Pichanzor va yaylovlar	21317	21317	21317	21309	21306	21185	21180	21179	21048	21087	21087	21085
Tomorqa yerlari	47538	47545	47555	47582	47818	47746	47775	47807	47981	50312	52405	58237
O'rmonzorlat	3908	3404	3909	3909	3909	3852	3848	3865	3867	3887	3882	3883
Jami foydalanilmaydigan yerlar	120507	120526	120600	120608	120575	120569	120641	120662	121072	119506	117538	111843

Jadval Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat Kadastrlari palatasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

O'rganilgan davrda o'rmonzorlarda katta o'zgarishlar kuzatilmaydi, lekin asosiy tomorqa yerlari 47538 ga.dan 58236 ga.ga yoki 122,5 % ga ortgan, foydalanilmaydigan yerlar toifasi maydoni kamayib borayotgan bo'lsada 2023 yilda 111803 ga. ni tashkil etadi.

Yer resurslaridan foydalanishni hududiy tashkil etish aholi soni, zichligi, joylashishi va bandligi bilan bog'liqligi tadqiqotchilar tomonidan yoritib berilgan. Sug'oriladigan yerlarning aholi jon

GEOGRAFIYA

boshiga hisoblangan miqdori va sifati yoki qishloq joylardagi agrodemografik bosim ko'rsatkichlari mamlakatimizning turli mintaqalari, viloyatlari, tumanlari doirasida bir xil emas [5].

Viloyat aholisining Respublikadagi ulushi 9,0 %ni tashkil qilsada ekin yerlari 1,3 % ni egallab vaziyatni qariyb 7 barobarga murakkab ekanligini bildiradi. Jumladan 1 ga. Qishloq xo'jaligi yerlariga to'g'ri keluvchi aholi soniga ko'ra Farg'ona iqtisodiy geografik rayonining Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari mos ravishda 13, 12,6 va 10,8 kishini tashkil etib Respublikada eng yuqori yer tanqisligi mavjudligini ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga ekin yerlari, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham kiradi [5].

Andijon viloyatining demografik va hududiy xususiyatidan, geoeologik vaziyatdan kelib chiqib ekin yerlari holati, undan foydalanish monitoringi natijasida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun geografik omillar (relyef, iqlimiy resurslar)ni hisobga olib ekinlarni joylashtirish orqali qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Viloyatning yer usti relyef xususiyati ham o'ziga xos. Andijon viloyati yer yuzasi shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon ko'tarilib boradi. Viloyatning eng g'arbiy qismi hisoblangan Ulug'nor tumani dengiz sathidan 385-406 metr balandlikda joylashgan bo'lsa, sharqqa tomon ko'tarilib, Baliqchi 414 metr, Bo'z, Oltinko'l, Shahrixon tumanlari 424 metr, Izboskan, Paxtaobod tumanlari 444 metr, Asaka 472-659 metr, Marhamat 800-1200 metrgacha, Buloqboshi, Xo'jaobod, Jalaquduq 801-1545 metrgacha, Qo'rg'ontepa 600-1350 metrgacha, Andijon shahri va tumani 400-500 metr dengiz sathiga nisbatan balandda joylashgan. Viloyat hududi inson faoliyat yuritishi uchun juda yaxshi qulayliklarga ega bo'lib, hududda dehqonchilikning, bog'dorchilikning barcha sohalarini keng ko'lamda rivojlantirish imkonini beradi va bundan aholi bugungi kunda keng foydalanmoqda. Viloyatda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Hozirgi paytda viloyatda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini asosiy qismi sug'oriladigan yerlarda yetishtirilmoqda shu sababli yerlardan samarali foydalanish va ularni mahsuldorligini saqlab qolish muhimdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan yuqori hosil olish uchun tuproqning (suv, havo, kimyoviy, biologik) rejimi va o'simliklarning iste'mol qilish talabi e'tiborga olinadi. Ulug'nor, Bo'ston va Baliqchi tumanlarida sug'oriladigan yerlarining sho'rlanish darajasi ancha yuqori bo'lib mos ravishda 86,2%, 72,7% va 62,6 % ga yetadi.

2-jadval**Andijon viloyati sug'oriladigan yerlarining sho'rlanish darajasi**

Tumanlar nomi	Sug'oriladigan maydon, ga	Sho'rlanish darajasi bo'yicha										Maydoni, ga	
		sho'rlanmagan		kuchsiz		o'rtacha		kuchli		Juda kuchli		Sho'rlangan yerlar, ga	
		ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%
1 Ulug'nor	22595	2937,3	14	10439	46	8427,9	37	542	2	67,8	0	19477	86
2 Bo'ston	13087	3572,7	27	6792,1	52	2565	20	65,4	1	78,5	1	9514,2	73
3 Baliqchi	20873	7806,5	37	10520	50	2546,5	12			20,8	0	13067	63
Jami	56555	14591,2	26	27769	49	13404	24	622	1	170	0	41964	74

Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Tuproq sho'rlangan bo'lsa, urug'larning nam tortishi juda sekinlashadi. Urug' yaxshi unib chiqishi uchun namlik zarur bo'lgan darajagacha ko'tarila olmaydi. Shu sababli urug'ning unib chiqishi ancha sekinlashadi yoki butunlay unib chiqmaydi. Tuproqning sho'rlanish darajasining

ortishi bilan tuproq eritmasining osmotik bosimi o'simlikning so'rish kuchidan ortib ketadi. Shu sababli o'simliklarning suv ichishi qiyinlashadi. Tuproqning **fiziologik quruqligi** deb ataladigan sharoit vujudga keladi. Bunda tuproqda namlik bo'lishiga qaramay, o'simlik yetarlicha suv icha olmaydi. Natijada, uning hayot faoliyati yomonlashadi, rivojlanishi sekinlashadi [7].

Joylarda almashlab ekishga kam e'tibor berilmoqda. Jumladan sug'oriladigan yerlarda paxta, don ekinlarini boshqa oziqabop ekinlar bilan almashlab ekishga ko'proq e'tibor berilmayapti. Geografik o'rniga ko'ra, asosan, tekislik landshaftida joylashgan va sabzavotchilikka ixtisoslashgan Oltinko'l, Bo'ston, Ulug'nor tumanlarida yerdan foydalanish jarayonida mineral o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish natijasida yerlar sho'rlanib yaroqsiz bo'lib qolayotgan bo'lsa, tog' va tog' oldi, adir landshaftiga xos Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Buloq boshi tumanlari xo'jaliklari paxta dalalarida yerdan noto'g'ri foydalanish natijasida qishloq xo'jalik ekinlari maydoni jarliklar hosil bo'lish evaziga qisqarib bormoqda. Lalmikor dehqonchilik rivojlangan yerlarni noto'g'ri agrotexnika qilish natijasida qishloq xo'jalik yerlari sifati yomonlashib bormoqda. Viloyatning chorvachilikka nisbatan ixtisoslashgan Asaka va Shahrixon, Andijon tumanlari, hamda boshqa tumanlarning chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarida yaylovlarda belgilangan me'yordan ortiq mol va qo'y-echkilar boqilishi natijasida yaylov hosildorligini pasaytirib oziqabop ekinlarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu ko'proq aholi qoramollarini tartibsiz boqilishi natijasida vujudga kelmoqda.

Viloyat qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqaruvchi sub'yektlar ya'ni fermer, dehqon xo'jaliklari, klasterlar, hamda qisman urug'chilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar, oilaviy pudratchi kabilarning viloyat yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishda ahamiyati kattadir. Shunday ekan, ushbu xo'jaliklarning hududlar kesimida yer resurslaridan foydalanish jarayonlarini tahlil qilib chiqish zarur tadbirlardan hisoblanadi.

XULOSA

Viloyatda yer resurslaridan foydalanish holati hududning nisbatan kichik ekanligiga qaramasdan turli xususiyatlarga ega. Shundan kelib chiqqan holda:

- yer resurslaridan foydalanish va tuproq holatini yaxshilashda samarali agrotexnik usullardan foydalanish;
- malakali tuproqshunos, o'simlikshunos, geograf xodimlarning faoliyatini to'g'ri tashkil etish;
- viloyat va tuman xo'jaliklari bo'yicha holati yomonlashayotgan yerlarda meliorativ tadbirlarni kuchaytirish;
- nisbatan urbanizatsiyalashgan hududlarda chiqindilarning foydalaniladigan yerlarga salbiy ta'sirini kuchli nazorat qilish kabi tadbirlarga alohida e'tibor berish kerak;

Yer resurslaridan foydalanishda ushbu vaziyatlarni hisobga olish qishloq xo'jaligining yanada rivojlanishida va iqtisodiyotning yuksalishida muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019 yil 17 iyundagi PF-5742 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4378526>
2. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari: <https://stat.uz/uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot. T.: O'zR Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo'mitasi. 2020.-103-b
4. Altiyev A.S. "Yerdan foydalanish iqtisodiyoti". T.: 2019 -372 b
5. Babajanov A.R., Ro'ziboyev S.B., Majitov B.X. Yerdan foydalanish asoslari. O'quv qo'llanma. T.: TIQXMMI, 2017, - 82 b
6. Ahmadaliyev Yu. I. "Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish" Geog. fan. dok. diss. ishi. T., 2007. -340 b.
7. Ahmadaliyev Yu. I. "Yer resurslaridan foydalanish geoeologiyasi" T., "Fan va texnologiyalar" 2014. -340 b.
8. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. "Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi". Toshkent. Sharq. 2008. - 408 b.